

O`ZBEK TILIDA NEOLOGIZMLAR TUSHUNCHASI

Temirova Shoxsanam Komilovna



Annotatsiya: Ushbu maqolada neologizmlar(yangi so`zlar), ularning paydo bo`lish sabablari, turlari , ijtimoiy hayotdagi o`rni borasida so`z yuritiladi va ulardan to`g`ri qo`llash haqida takliflar beriladi.

Kalit so`zlar: neologizm, leksik, semantik, fonetik va morfologik neologizmlar, qisqartmalar, so`zlarning o`zlashishi.

Аннотация: В статье рассматриваются неологизмы (новые слова), причины их появления, виды, их роль в общественной жизни, а также даются предложения по их правильному употреблению.

Ключевые слова: неологизм, лексические, семантические, фонетические и морфологические неологизмы, аббревиатуры, апроприация слов.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan XXI asrda nafaqat zamonaviy texnologiyalar, balki so`zlar ham o`zgarayotgani hech kimga sir emas. Insonlar ulardan o`qish, ish ,qolaversa, kundalik hayotda ham foydalanishga ehtiyoj sezishmoqda. Tilshunoslikda bu atama “Neologizm” (Yangi so`z) deb atalib, jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo`lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so`zlar hisoblanadi. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo`lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o`tgach, ular “yangilik” xususiyatini yo`qotib faol so`zlar qatoriga o`tadi. Masalan, O`zbekiston mustaqillikka erishgach iqtisod, madaniyat, fan va texnika, tashqi aloqalar sohasida katta yutuqlarga erishdi, natijada boshqa tillardan ko`plab so`z va iboralar kirib keldi. Bular yangi tushunchalarni ifodalagani uchun yangi paydo bo`lgan so`zlar deyiladi.

Neologizmlarning paydo bo`lish sabablari turlicha bo`ladi. Masalan, ilm-fan va texnologiyaning rivoji tilimizda biz uchun yangi tushunchalardan



foydalanimi talab qilmoqda(smartfon, IT, dron va hkz.). Bundan tashqari internet va ijtimoiy tarmoqlar ham yangi so`zlarning vujudga kelishiga ta`sir qilmoqda. O`zbek tilining ichki imkoniyatlari bilan yasalayotgan so`zlar ham neologizmlar paydo bo`lishining asosiy sababidir. Ingliz, rus kabi chet tillaridan kirib kelgan tushunchalar tufayli ham tilimizda yangi so`zlar o`zlashyapti.

Neologizmlarni bir necha turlarga bo`lib o`rganish mumkin.

A) Leksik neologizmlar. Ular tilga mutlaqo yangi kirib kelgan va eng ko`p tarqalgan turdagini so`zlar hisoblanadi. Ular lug`at boyligini oshiradi va bevosita yangilikni nomlash vazifasini bajaradi. Leksik neologizmlarni mavzu doirasida sohalar bo`yicha ham tahlil qilish mumkin: IT, biznes, tibbiyot va boshqalar. Quyida ularga ba`zi misollar berilgan:

- *bloger*- internetda konkent yaratuvchi shaxs.
- *kriptoaktiv* - raqamli aktiv turi.
- *dron* - uchuvchisiz uchish apparati.
- *postkovid sindromi* – COVID-I9 kasalligidan keyingi sog`liq muammolari.

B) Semantik neologizmlar. Eski so`zga yangi ma`no yuklanishini namoyon etadi. So`zning shakli o`zgarmaydi, lekin yangi tushunchani anglatadi.

- *oyna* – deraza oynasi (eski ma`no), computer oynasi (yangi ma`no).
- *bulut* – osmondagisi bulut (eski ma`no), internetdagisi ma`lumotlar buluti (yangi ma`no).
- *sichqoncha* – hayvon (eski ma`no), computer qurilmasi (yangi ma`no).



C) Fonetik yoki grafik neologizmlar. Bu tur asosan xorijiy so`zlarning mahalliy talaffuzga moslashuvi yoki yozuvdagi o`zgarishlar bilan bog`liq. Tilga olib kirgan so`zlar o`zbek tiliga moslashtiriladi.

- *file* (ing.) - fayl (o`zbekcha imlo va talaffuz).
- *monitor* (ing.) – monitr (qisqartirilgan talaffuz).

D) Morfologik neologizmlar – o`zbek tilining yasovchi qo`shimchalar imkoniyatidan foydalanib yaratilgan yangi so`zlar. Bu usul tilning o`z ichki kuchi bilan yangilanishini ko`rsatadi.

- dastur + -chi = dasturchi.
- uchmoq + -uvchi = uchuvchi.
- o`qish + -xona = o`quvxona.

Bulardan tashqari neologizmlarning qo`shimcha turlari ham mavjud bo`lib, ular qisqartmalar va boshqa tillardagi so`zlarning o`zlashishidan hosil bo`ladi.

Neologizmlardan to`g`ri foydalanish til madaniyatining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Ular har doim adabiy til normalariga mos shaklda, imlo va talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ishlatilishi lozim. Keraksiz takrordan qochish kerak, chunki yangi so`z mavjud so`zning sinonimi sifatida kiritilsa, u keraksiz bo`lib qolishi mumkin. Neologizm ishlatilgan, u keng jamoatchilikka tushunarli bo`lishi yoki izoh berilishi kerak. Ilmiy, rasmiy matnlarda noaniq yoki hali umumlashmagan neologizmlardan ehtiyyotkorlik bilan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda, neologizm hozirgi kunda tilda “yangilik” ma`nosini saqlab turgan so`z yoki iboralardir. Insoniyat hayotining tobora rivojlanishi yangi so`zlarga bo`lgan ehtiyojlarni ham birmuncha oshiradi. Natijada biz turli yo`llar bilan muloqot uchun kerakli so`zlarni yasaymiz, yangi so`zlarning yasalishi boshqa tildan kirib kelgan so`zlar, tilimizda allaqachon mavjud bo`lgan so`zlarning shaklini o`zgartirish, eski so`zlarni umuman boshqa bir ma`noda qo`llash hisobiga amalga oshiriladi. Yangi so`zlarning tilga kirib kelishi



jarayonida ularni adabiy til me`yorlariga mos holda, soha xususiyatlari va auditoriya ehtiyojlarini inobatga olib ishlatish til madaniyati uchun zarurdir. Shunday ekan, yangi so`zlardan to`g`ri foydalanish, ularning til tizimida mustahkam o`rin egallashga va milliy tilning zamon talablarida hamnafas bo`lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O`zbek tilidan ma`ruzalar to`plami” N.Erkaboyeva.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar>.
3. O`ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA NEOLOGIZMLARNING TAHLILI | SO`NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI <https://share.google/0btAmvnpoWzcNXQ4L>.
4. Eranova, Z. (2021). The problem of the norms of phraseological units. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(1), 74-81.